

## **ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA TA’LIM BERISH VAZIFALARI**

**Abduxalilova Marjona Ixtiyor qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

### **ANNOTATSIYA**

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'lim-tarbiya mazmuni maxsus ta'lim dasturlarida aks ettirilgan bo‘lib, maktab pedagoglar oldiga quyidagi vazifalari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘z:** L.S.Vigotskiy, sivilizasiya, o‘qituvchi-defektolog, surdopedagog, korreksion vazifa, o‘yin, mehnat va tasviriy faoliyat.

### **TASKS OF TEACHING SCHOOL-AGE CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT**

#### **ABSTRACT**

The educational content of deaf and hard-of-hearing children is reflected in special educational programs, and the following tasks are addressed to school pedagogues.

**Key words:** L.S. Vygotsky, civilization, teacher-defectologist, deaf pedagogue, correction task, game, work and visual activity.

Maktablarda tashkil etiladigan ta'lim bolalarni har tomonlama kamol toptirish, maktab ta'limiga taylorlashga qaratiladi. Ta'lim jarayonida pedagoglar bolalarning bilish faoliyatini tashkil etadi, yo‘naltiradi, bolalar esa bilim ko‘nikma va malakalarni egallaydilar, ular amaliy, aqliy, nutqiy faoliyat turlari va usullarini o‘zlashtiradilar. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'lim-tarbiya mazmuni maxsus ta'lim dasturlarida aks ettirilgan bo‘lib, maktab pedagoglar oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi: 1. Bolaning umumiyl rivojlanishini boyitish; 2. Rivojlanishdagi mavjud kamchiliklarni korreksiyalash; 3. Maktab ta'limiga tayyorlash. Xozirgi kunda maxsus ta'lim-tarbiya

jarayonining mazmuni va tashkiliy shakllarini tanlashda umumiy yondashuvga amal qilish talab etilmoqda. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan maktab yoshidagi bolalar bilan tashki etiladigin umumrivojlantiruvchi va korreksion ishlar bolani ijtimoiy faollashuviga, L. S. Vigotskiy so‘zi bilan aytganda "sivilizasiyaga uyg‘unlashuvi"ga, ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratiladi. Eshituvchi hamda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanishidagi umumiy qoniniyatlarini hisobga olgan holda ularning to‘laqonli psixik rivojlanishi, shaxs madaniyatining shakllanishi ya’ni, narsalar, ijtimoiy hodisalar, tabiat hodisalari, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yaxshi bilib tushunib olishlarini ta’milanib borish zarur. Yuqorida qayd etilgan vazifalar amalga oshirilgan holda bolalarning ijtimoiy rivojlanishi, bilish faoliyatining o‘sishi, shaxsiy sifatlarining rivojlanishi ta’milanadi. Buning uchun bolalarning umumiy rivojlanishini boyitish, rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash, eshituv holati me'yorda bo‘lgan bolalar egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni imkon boricha kar va zaif eshituvchi bolalarga berish kerak. Maxsus mashg‘ulotlar boshlang‘ich maktablarda ta’limning muhim vositasi hisoblanadi. Mashg‘ulotlar jadval asosida ertalabki va kechki soatlarda olib boriladi. Ertalabki soatlarda surdopedagog va tarbiyachi 2ta mashg‘ulot o‘tkazadi. Umummiy yalpi mashg‘ulotlardan so‘ng surdopedagog eshitish qobiliyatni rivojlanirish va talaffuzni o‘rgatish bo‘yicha kamida 6 ta alohida yakkama-yakka mashg‘ulotlar olib boradi. Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi o‘z mashg‘ulotlarini barcha guruh bolalari bilan o‘tkazadi. O‘qituvchi-defektolog (surdopedagog) nutq o‘stirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, eshitish qobiliyatini rivojlanirish va talaffuzni shakllantarish mashg‘ulotlarini olib boradi.

Tarbiyachining zimmasiga bolalarning kun tartibini tashkil etish, jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyat, o‘yin, mehnat, tevarak-atrof bilan tanishtirish mashg‘ulotlarini tashkil etish, musiqa mashg‘ulotlarida qatnashish yuklatiladi. Bolalar bog‘chasining kun tartibida maxsus tashkil etilgan yalpi mashg‘ulotlarga ta’limning 1-2 yillarida haftasiga 24 soat, 3-4-5- yillarda -30 soat ajratiladi. Alohida-alohida mashg‘ulotlarga dastur bo‘yicha har kuni 2 soatdan ajratiladi, shunda o‘rtalari hisobda har

bir bolaga kuniga 15-25 daqiqadan sarflanadi. Maxsus maktablarda tashkil etilgan ta'limning asosiy vazifalari bolalarning bilish faoliyatini maqsadli yo‘naltirish, dastur talablariga muvofiq bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda so‘zli nutqni o‘stirishdan iborat. Surdopedagog nutq o‘stirish mashg‘ulotlardan tashqari eshitish qobiliyatni rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish mashg‘ulotlarni olib boradi.

Mashg‘ulotlarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning eshitish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, nutqiy va nutqsiz tovushlarni farqlash, so‘z, so‘z birikmalari, gap, matnlarni eshitib farqlashga o‘rgatiladi. Talaffuzni o‘rgatish sohasida bolalarda tabiiy, aniq, ravon nutqni shakllantirish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlarda nutqiy nafasni rivojlantirish, ovozni hosil qilish, tovushlarni qo‘yish, so‘z, gap, matn ustida ish olib boriladi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzga o‘rgatish ishlari yalpi va yakkama-yakka ravishda amalga oshiriladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan boshlang‘ich maktab yoshidagi ta’lim-tarbiya berish ishining mazmuni dasturning jismoniy tarbiya, o‘yin, mehnat, tasviriy faoliyat va qurish-yasash, tevark-atrof bilan tanishtirish, nutq o‘stirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, musiqa tarbiyasi bo‘limlarida aks ettirilgan. Har bir ko‘rsatilgan dastur bo‘limi bolalarni umumiy rivojlantirish vazifasini amalga oshiradi. Dastur bo‘limlari bo‘yicha olib borilgan ta’lim-tarbiyaviy ish bolaning umumiy rivojlanishini boyitibgina qolmay, uni normal bolalar rivojlanishiga yaqinlashtiradi hamda korreksion ishni olib borish uchun zamin yaratadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish - korreksion vazifalarning mazmuniga kiradi. L.S.Vigotskiyning nazariyasiga ko‘ra, erta paydo bo‘lgan karlik yoki qulog‘i og‘irlik nutqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir etadigan ikkilamchi kamchiliklarni yuzaga keltiradi. Nutqiy rivojlanishidagi izdan chiqishlar muloqotning buzilishiga va u o‘z navbatida, bilish faoliyatidagi va shaxsiy rivojlanishidagi o‘ziga hosliklarini keltiradi. Shunday qilib, korreksion-tarbiyaviy ishlar ikkilamchi buzilishlarni, ya’ni, nutqiy va muloqotdagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratiladi. Umumiy rivojlantiruvchi va korreksion vazifalarni uyg‘unlikda amalga oshirilishi eshitishda nuqsoni bo‘lgan

bolalarning to‘laqonli rivojlanishini ta'minlab, maktab ta'limiga tayyorlanishiga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. P. Po‘latova, L. Nurmuhamedova, Sh. Amirsaidova Maxsus pedagogika-T.: Fan va Texnologiyalar ,2014
2. D. A. Nurkeldiyeva, M. U. Hamidova Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi.
3. “Surdopedagogika” o‘quv-uslubiy majmua. Tuzuvchi; Z.N. Mamarajabova.
4. Fayziyeva U. Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. –Toshkent: TDPI. 1994
5. Кузмичева Е. Г. Развитие речевого слуха у глухих детей. М.: Педагогика
6. Fayziyev U. Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.defektolog.uz](http://www.defektolog.uz)